



Iste'mol kayfiyati sharhi

2025 yil
may

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Iste'mol kayfiyati

2025-yilning mart oyida iste'mol kayfiyatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovlarda jami 2 900 nafarga yaqin aholi qatnashdi.

Mazkur davrda aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar davom etdi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlar asosan, kelgusidagi shaxsiy moliyaviy holatlariga nisbatan ijobiy munosabat bildirib, bunda daromadlar o'sishiga oid kutilmalar yaxshilangan.

Aholining kelgusidagi iste'mol xarajatlari borasidagi kayfiyatida ham ma'lum darajada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, respondentlar orasida kelgusidagi iste'mol xarajatlarini oshirishga tayyor ekanliklarini ta'kidlaganlar ulushi biroz o'sgan.

Shu bilan birga, jamg'arishga bo'lgan moyillikning oshishi kuzatilmoqda. Bunda iste'molchilar o'z mablag'larini saqlash va kelgusidagi moliyaviy xatarlardan himoyalaniish maqsadida jamg'armalarga ko'proq e'tibor qaratishmoqda.

Kreditga bo'lgan talabning ham avvalgiga nisbatan biroz oshgani respondentlarning iste'mol xarajatlarini asosan kredit mablag'lari orqali moliyalashtirishni rejalashtirganliklarini anglatadi.

Umuman olganda, ushbu davrda aholining iste'mol kayfiyatidagi ijobiy tendensiyaning saqlanib qolishi hamda biroz o'sishning kuzatilishi, iqtisodiy faollikda ma'lum darajada jonlanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu holat aholining daromad manbalariga nisbatan ishonchi ortganini va kelgusi moliyaviy imkoniyatlarini ijobiy baholayotganini anglatadi.

Mazkur ko'rsatkichlarning barchasida qayd etilgan o'sish aholining moliyaviy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.


O'z navbatida, iqtisodiy faollikning kutilayotgan jonlanishi mavsumiy faollik bilan ham bog'liq bo'lib, bahor va yoz oylarida qurilish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida faollikning sezilarli darajada ortishi kuzatiladi. Bu esa, iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi va mehnat bozoridagi faollikning o'sishiga turtki beradi.

Shuningdek, aholi tomonidan iste'mol va sayohat qilishga bo'lgan talab mavsumiy ravishda ortgani sari, ichki bozordagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ham oshib boradi. Bu holat o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Daromad subindeksi

Aholi daromadlarida kuzatilayotgan barqaror ijobiy tendensiyalar iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlayotgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. 2025-yil I choragida daromad subindeksi o'sish tendensiyasini namoyon qildi. Ushbu ko'rsatkich avvalgi chorakka nisbatan **0,2 bandga** oshib, **71,3 band** darajasida shakllandi (1-2-rasmlar).

1-rasm. Daromad subindeksi (band)



2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Iqtisodiy faollikning barqaror saqlanishi hamda ish bilan bandlik imkoniyatlarining kengayishi mazkur ko'rsatkichning yaxshilanishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasidagi mavsumiy faollik ham mazkur dinamikaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan asosiy omillardan hisoblanadi (3-rasm).

Kelgusidagi daromadlari oshishini kutayotganlar ulushi amalda o'zgarmagan holda **66,5 foizga** teng bo'ldi. Daromadlari o'zgarmasligini ta'kidlaganlar ulushi 21,5 foizgacha pasaygan.


Bu kelgusida aholi orasida daromadlar oshishiga nisbatan ishonch saqlanayotganini, shu bilan birga, ma'lum darajadagi ehtiyotkorlik kayfiyati mavjudligini ko'rsatadi (3-rasm).

2024-yilning mos davriga nisbatan daromadlari ko'payishini kutayotganlar va daromadlari kamayishini ta'kidlaganlar ulushi mos ravishda 0,6 va 2,9 foiz bandga oshgan.

3-rasm. Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



4-rasm. Daromadlar kesimida javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

2025-yilning I choragida avvalgi chorakka nisbatan asosan, o'rta va o'rtadan yuqori daromadli qatlamlar (3-10 mln so'm daromad oluvchilar) kelgusida daromadlari oshishini ko'proq kutayotgan bo'lsalar, ushbu ko'rsatkich 10-15 mln va 20 mln so'mdan yuqori daromad oluvchilar guruhida kamaygan.

Daromadlar bo'yicha shakllanayotgan optimistik kutilmalar aholining iste'mol talabi ortishiga turtki bermoqda. Xarid qobiliyatining oshishi ichki bozordagi iqtisodiy faollikni kuchaytirib, ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, shuningdek, ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirib, yangi sarmoyalar uchun jozibador investitsion muhit shakllanishiga yordam beradi. Shu tariqa, aholining daromadga bo'lgan ijobiy kutilmalari iqtisodiy o'sish zanjirida muhim o'rin tutadi.


Respondentlarning 59 foizi (2024 yil IV chorakda 68 foiz) rasmiy ish xaqidan daromad olishini ta'kidlagan. Tomorqa va yollanma ishlar, tadbirkorlik faoliyati va chet eldan pul o'tkazmalari orqali daromad oluvchilarning ulushi ortgan bo'lsa, mulk ijarasi, dividend hamda depozitdan daromad topuvchilar ulushi biroz kamaygan (5-rasm).

Kelgusidagi daromadlar bo'yicha kutilmalar turli sohalar kesimida turlicha shakllanmoqda. Ayniqsa, turizm, ishlab chiqarish, fan-ta'lim, qishloq xo'jaligi va maishiy xizmat sohalarida faoliyat yurituvchi respondentlar

orasida daromadlar o'sishiga bo'lgan ishonch yuqori bo'lib qolmoqda. Bu esa, mazkur iqtisodiy tarmoqlarda barqarorlik va faollikning saqlanishi bo'yicha ijobiy kutilmalar shakllanayotganligini ifodalaydi.

Shu bilan birga, kafe-restoran, chakana savdo, bank-moliya, axborot texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari sohalari vakillari daromadlari oshishi bo'yicha ehtiyotkorona munosabat bildirishgan. Ularning daromad o'sishi borasidagi kutilmalari biroz sekinlashgan bo'lib, bu sohalaridagi iqtisodiy jarayonlarning ma'lum darajadagi noaniqligi bilan izohlanishi mumkin(6-rasm).

5-rasm. Respondentlarning daromad manbalari (ulushi, foizda)



6-rasm. Faoliyat sohalari kesimida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



Sohalar	ko'payadi	o'zgarishsiz qoladi	kamayadi
turizm	78	12	10
ishlab chiqarish	76	15	9
fan-ta'lim	75	16	10
qishloq xo'jaligi	73	19	8
maishiy xizmat	72	18	10
savdo	71	16	12
tibbiyot	71	17	11
tashish xizmati	70	23	7
davlat boshqaruvi	68	18	14
kommunal xizmat	66	19	15
qurilish	63	24	13
bank va moliya	62	26	12
boshqa	60	25	15
kafe-restoran	53	25	22
AT va OAV	52	33	14

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Xarajat subindeksi



Respondentlarning xarajatlar bo'yicha kutilmalarida o'sish qayd etilgan. Mazkur davrda xarajat subindeksi **0,4 bandga** oshib, **77,9 bandga** yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatkichda sezilarli o'zgarish kuzatilmadi (7-8-rasmlar).

Xarajat subindeksining oshishi, aholining kelgusida daromadlar bo'yicha ijobiy kutilmalari shakllanayotgan sharoitda mavsumiy sarf-xarajatlari (masalan, ta'lim, to'y yoki bayramlar hamda turizm) ortishi mumkinligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, xarajat subindeksidagi 0,4 bandlik o'sish aholining iqtisodiy faolligida ehtiyotkorlik bilan ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganidan dalolat beradi.

7-rasm. Xarajat subindeksi (band)**8-rasm. Xarajat subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Iste'molchilarning kelgusi xarajatlar bo'yicha kutilmalari barqaror qolmoqda. 2025-yilning I choragida so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 77,6 foizi (avvalgi chorakda 77 foiz) kelgusi 12 oy mobaynida o'z xarajatlarning oshishini kutmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davrida 77,4 foizni tashkil etgan. Ko'rsatkichlar orasidagi farq nisbatan kichik bo'lsa-da, kelgusidagi xarajatlar oshishi bo'yicha kutilmalar ijobiy shakllanayotganini ko'rsatadi.

9-rasm. Kelgusi xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**10-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Shu bilan birga, kelgusidagi xarajatlarni o'zgarmas deb baholagan respondentlar ulushi 1,5 foiz bandga kamayib, 13,7 foizni tashkil etdi. Ayni

paytda, xarajatlarning qisqarishini ta'kidlaganlar ulushi 0,9 foiz bandga oshib, 8,7 foizga yetdi. Ushbu holat respondentlar orasida ehtiyotkor kayfiyatning biroz kuchayganini aks ettirishi mumkin (9-rasm).

2024-yil IV chorakda quyi va o'rta daromadli toifadagi respondentlar (3 mln so'mgacha, 3-5 mln so'm va 5-7 mln so'm) kelgusi chorakda xarajatlarning oshishini kutishmoqda. Shu bilan birga, yuqori daromadlilar, ya'ni 10-15 mln so'm va 15-20 mln so'mdan ortiq daromadga ega respondentlar xarajatlarni amalga oshirishda ehtiyotkorlikni saqlab qolishmoqda (10-rasm).

11-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlar bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlar	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	avtomobil	to'y	davolanish	sayohat	uy-joy xaridi	xarid qilmaymiz	mebellar	maishiy texnika	oilaviy bayram	elektron qurilma
2 mln.so'mgacha	23	19	13	7	9	14	3	3	13	4	5	3	2
2 - 3 mln.so'm	27	22	13	8	8	11	6	8	7	7	5	7	2
3 - 5 mln.so'm	27	22	16	11	11	10	7	11	11	7	9	8	5
5 - 7 mln.so'm	28	24	16	12	9	11	8	9	11	9	9	7	4
7 - 10 mln.so'm	29	22	18	12	11	12	9	10	12	9	11	10	4
10 - 15 mln.so'm	27	25	18	13	12	15	15	12	7	8	9	11	3
15 - 20 mln.so'm	28	22	16	21	13	4	18	17	4	15	9	13	3
20 mln.so'mdan yuqori	29	27	17	16	15	8	19	8	5	11	13	12	9

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Barcha daromad guruhlari kutilmalarida xarajatlar, asosan, **uy-joy, ta'lim, avtomobil** va **to'y** marosimlari bilan bog'liq (11-rasm).

Yosh guruhlari bo'yicha, xususan, 18-30 yoshlilar asosan, ta'lim, uy-joy ta'miri, davolanish va boshqa xarajatlarni rejalashtirayotgan bo'lsalar, o'rta yosh vakillari (31-40) ko'proq davolanish hamda uy-joyini ta'mirlashga mablag' sarflashlarini bildirganlar.

Shuningdek, 41-50 yoshlilar ham o'xshash yo'nalishlarda: davolanish, uy-joyini ta'mirlash va boshqa ehtiyojlar uchun harajat qilishni rejalashtirmoqda. Ushbu guruhda to'y va avtomobil xaridi yo'nalishidagi xarajatlar ham yuqori saqlanib qolmoqda.


Katta yoshdagilar (50 yoshdan yuqori)da davolanish mutlaq ustuvor yo'nalishga aylangan bo'lib, qolgan barcha xarajat maqsadlari kamroq ulushga ega bo'ldi (12-rasm).

12-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)

Yosh chegarasi	ta'lim	uy-joy ta'miri	davolanish	boshqalar	xarid qilmadik	oilaviy bayram	maishiy texnika	avtomobil	to'y	mebellar xaridi	uy-joy xaridi	elektron qurilma	sayohat
18 dan kichik	31	24	8	10	8	11	11	5	6	1	7	6	4
18-30	34	21	17	18	12	9	10	10	9	6	5	5	3
31-40	18	21	19	20	17	9	10	7	4	6	6	3	3
41-50	27	21	20	19	17	8	7	6	5	6	6	3	3
51-60	16	22	27	12	16	15	11	11	11	4	3	1	2
60+	0	15	30	25	15	10	5	10	0	5	0	5	5

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusi chorakda aholi uy-joy ta'mirlash, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarga sarflarini davom ettirishni rejalashtirgan. Bunda avtomobil xaridi va to'y marosimlari kabi yirik xarajatlar ham inobatga olingan.

13-rasm. Yirik xaridlar/xarajatlar o'zgarishi (ulushi, foizda)

O'tgan davrda amalga oshirilgan yirik xaridlar/xarajatlar

Kelgusi oylarda yirik xaridlar/xarajatlar bo'yicha kutilmalar

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


So'rov natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning yaqin istiqbolda ham yuqori darajada saqlanib qolishini kutish mumkin (13-rasm).

Kredit subindeksi


Kredit subindeksi so'nggi ikki chorak mobaynida o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Joriy yilning I choragida kredit

subindeksi 2024-yil IV choragiga nisbatan **1,5 bandga** oshib, 67,3 bandni tashkil etdi.

14-rasm. Kredit subindeksi (band)




15-rasm. Kredit subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Shunga qaramay, ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,9 bandga past shakllangan (14-15-rasmlar). Kelgusi 12 oyda kredit qarzdorligini oshirishni maqsad qilgan respondentlar ulushi 58,7 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan chorakka nisbatan 1,7 bandga oshgan.

16-rasm. Kelgusidagi kreditga bo'lgan talab o'zgarishi bo'yicha kutilmalar taqsimoti (ulushi, foizda)



17-rasm. Daromadlar darajasi kesimida kreditga bo'lgan talab (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kreditga bo'lgan talabining kamayishini hamda o'zgarmasligini rejalashtirganlar ulushi mos ravshida 12,7 va 28,6 foizga pasaydi.

Bu aholining moliyaviy rejalarda shakllanayotgan turlicha yondoshuvlarning mavjudligini ko'rsatadi (16-rasm).

Kelgusida kredit olishni rejalashtirayotganlar ulushi 2024-yil IV chorakka nisbatan 3 mln so'mgacha, 5-7 mln so'm va 15-20 mln so'm daromadli guruhlarda oshgan. Bu ushbu daromad guruhlari kreditga bo'lgan talabning ortishiga ishora qiladi. (17-rasm).

Respondentlarning kelgusi sarflar va kreditga bo'lgan ehtiyojlari turli xil bo'lib, asosan uy-joy ta'miri, ta'lim, sog'liqni saqlash va avtomobil sotib olishga e'tibor qaratishmoqda.

18-rasm. Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	avtomobil	to'y	xarid qilmaymiz	uy-joy xaridi	maishiy texnika	sayohat	mebellar	oilaviy bayram	elektron qurilma
oshadi	28	22	14	12	14	12	8	12	9	9	9	8	3
o'zgarishsiz qoladi	28	23	16	14	9	9	12	8	8	8	6	8	3
kamayadi	24	22	14	9	10	11	6	10	11	8	10	6	6
kreditga ehtiyoj yo'q	26	22	18	11	10	9	13	6	8	9	7	9	4


Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Umuman olganda, ta'lim va uy-joy ta'miri barqaror xarajatlar qatorida qolib, ularning ahamiyati o'zgarmasdan, davomiy sarflar sifatida muhim rol o'ynamoqda (18-rasm).


Jamg'arish subindeksi

Jamg'arishga bo'lgan qiziqishda ijobiy o'sish kuzatilmoqda. 2025-yilning I choragida jamg'arish kayfiyati subindeksi o'tgan chorakka nisbatan **1,2 bandga** ko'tarilib, **69,3 bandni** tashkil etdi.

19-rasm. Jamg'arish subindeksi (band)



20-rasm. Jamg'arish subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz bandda)




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Bunda, jamg'armalarining oshishini kutayotgan respondentlar ulushi 2,0 foiz bandga ko'payib, 64,3 foizni tashkil etdi (19-20-rasmlar).

Jamg'armalarining o'zgarmasligini kutganlar ulushi 2,3 foiz bandga kamayib, 21,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armalari kamayishini kutayotganlar ulushi esa 0,3 foiz bandga oshib, 14,1 foizni tashkil etdi (21-rasm).

21-rasm. Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)



22-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)





Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Respondentlar orasida kelgusidagi jamg'armalarining yetarliligi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Bunda jamg'armasi 6 oydan ortiq davrga yetadi deb hisoblaganlar ulushi biroz o'sgan. Aksincha, 1 oy yoki 1-3 oyga yetadi deb hisoblaganlar ulushi kamaygan. Shuningdek, jamg'armasi yo'qligini bildirganlar ulushi so'nggi chorakda kichik darajada ortib borayotgani kuzatildi (22-rasm).

So'rov natijalariga ko'ra, 2025 yil I chorakda respondentlarning aksariyati moliyaviy holatlari yaxshilanganini bildirishdi. Avvalgi chorakka nisbatan moliyaviy ahvoli ijobiy tomonga o'zgarganini ta'kidlaganlar ulushi ortgan bo'lsa, yomonlashgan deb hisoblagan respondentlar ulushi o'zgarishsiz qoldi (23-rasm).



2024-yilda aholining bank depozitlari hajmi sezilarli darajada oshgani 2025-yilda ham davom etmoqda. 2025-yilning birinchi choragida aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari hajmi o'sishi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,3 foizga oshgan (24-rasm).

23-rasm. Respondentlarning moliyaviy holati o'zgarishi (ulushi, foizda)**24-rasm. Aholi muddatli depozitlari qoldig'i o'sishi (trln. so'm, yillik foizda)**

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari va kuzatuvlari asosida.

Iqtisodiyot bo'yicha kutilmalar

Aholining iqtisodiyotga bo'lgan ishonchi ijobiy trendni saqlanib qolmoqda.

25-rasm. Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**26-rasm. Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Natijalarga ko'ra, 58 foiz respondentlar iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishiga ishonch bildirgan bo'lsa, 25 foizi hozirgi barqaror holatning saqlanishini taxmin qilmoqda. Bu o'z navbatida, aholining iqtisodiy holatga bo'lgan optimistik munosabatini ko'rsatadi (25-rasm).

O'rta muddatli iqtisodiy kutilmalar avvalgi chorak bilan taqqoslanganda, o'zgarishsiz qolmoqda. So'rovda ishtirok etganlarning

66 foizi kelgusi 3 yilda iqtisodiyot rivojlanishini kutishmoqda. Shu bilan birga, 11 foizi xavotirlarini bildirgan. Bu esa, aksariyat aholida uzoq muddatga bo'lgan iqtisodiy ishonchning shakllanayotganini biroq, jahonda yuz berayotgan hodisalar fonida biroz xavotirlar ham mavjudligini ko'rsatadi (26-rasm).

Iste'mol kayfiyati indeksi

Markaziy bank tomonidan aholining keng soha vakillarini qamrab olgan holda o'tkaziladigan so'rovlar natijalari asosida berib boriladigan **iste'mol kayfiyati indeksi¹ (IKI)** ni hisoblashda so'rov ishtirokchilarining kelgusidagi **daromadlari, xarajatlari, kreditlari va jamg'armalari o'zgarishi** bo'yicha tanlangan javob variantlari sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Bunda respondentlar tomonidan belgilangan javoblar variantlari quyidagi vaznlar orqali umumlashtiriladi va normallashtiriladi:

sezilarli darajada ko'payish/oshish (ijobiy) – 100;

biroz ko'payish/oshish (ijobiy) – 75;

neytral javob (o'zgarishsiz) – 50;

biroz kamayish (biroz salbiy) – 25;

sezilarli darajada kamayish (salbiy) – 0.

Agar hisoblangan subindeks ko'rsatkichi 50 bandga teng bo'lsa, so'rov ishtirokchilari o'rganilayotgan kutilmalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Agar 50 banddan yuqori bo'lsa, kutilmalar oshayotganini bildiradi. Agar subindeks ko'rsatkichi 50 banddan past bo'lsa, kutilmalar pasayganini bildiradi.

Shuningdek, subindeks 100 bandga teng bo'lishi barcha respondentlar yuqori oshishini kutayotganini anglatadi, 0 bandga teng bo'lishi barcha sezilarli kamayishini bildirganini anglatadi.

¹ Indeks ko'rsatkichi 0 dan +100 oralig'ida bo'lib, ko'rsatkich +100 ga yaqinlashgani sari iste'mol kayfiyatidagi ijobiylikni ifodalaydi.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025 yil

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22